

## BURUN, TOMOQ KASALIKLARI

*Fozilova Nozila*

**Kalit so'zlar:** Otorinolarinolog, quloq, tomoq, burun, tonzillit, gaymorit, sinusit.

**Ключевые слова:** оториноларинголог, ухо, горло, нос, тонзиллит, гайморит, гайморит.

LOR huzuriga borish uchun kasal bo'lish shart emas. Odam o'z sog'ligini kasalliklardan saqlash uchun yilda ikki maotaba LOR ko'rigidan o'tishlari tavsiya etiladi. Ayniqsa sovuq yeyishni hush ko'radiganlar va yaxna ichimliklarni ichishga odatlanganlar doimiy ravishda LOR shifokori ko'rigidan o'tib turishlari lozim. Yuqorida keltirilgan kasallik misolida ko'rsatilganidek, yurak va bo'g'imlar salomatligi og'iz bo'shlig'I, burun va quloqlarni salomatligiga chambarchas bog'liq. Shuning uchun quloq, burun, tomoq sohalarni salomat holda juda muhim.

Otorinolarinolog ya'ni LOR shifokori quidagi kasalliklarni davolaydi: neyrosensor karlik, og'ir quloqlik, otitlarni barcha ko'rinishi, Laringit, Faringit, Rinit, Burun devolini qiyshayishi, Gaymoritlar, Sinusitlar, Tozillitlarni davolaydi. Misolda sizga biroz o'tir tonzillit haqida ma'lumot beramiz. Ikki tomonli lakunar o'tkir tonzillit O'tkir tonzillit (ko'proq so'zlashuvda „Angina“ (lot. angina — bo'g'ilish)) — tanglay murtak bezlarining yalliglanishi bilan kechadigan o'tkir infeksiyon kasallik; ko'proq streptokokk, stafilokokk va boshqa mikroblar qo'zg'atadi. Ular halqumga aksari o'tkir tonzillit bo'lgan bemor foydalangan uy-ro'zg'or buyumlari (mas, yuvilmagan idish-tovoq va boshqalar)dan tushadi. Ko'pincha halqumda bo'ladigan va odatda kasallik qo'zg'atmaydigan mikroblar ayrim noxush omillar ta'sirida, mas, kishi sovqotganda yoki harorat o'zgarganda kasallik qo'zg'atishi mumkin. Halqumga muntazam tushib turadigan tutun, chang, spirtli ichimliklar, shuningdek burun orqali nafas olishni qiyinlashtiradigan adenoidlar va burun-halqumning boshqa kasalliklari o'tkir tonzillitga sabab bo'lishi mumkin. Burun va yondosh bo'shliqlarining yallig'lanishi (mas, gaymorit), shuningdek og'iz bo'shlig'idagi yiringli yallig'lanishlar (chirigan tishlar) ham o'tkir tonzillitga sabab bo'ladi. Kasallik to'satdan boshlanadi. Bemorda madorsizlik, bosh og'rig'i, tomoq qaqrab og'rishi, achishishi, yutinganda og'riq kuzatiladi. Harorat ko'tariladi (38—41°); 476murtak bezlari qizarib, ular yuzasida yiringli karash paydo bo'ladi. O'tkir tonzillit bilan tez-tez og'rish natijasida murtak bezlari surunkali yallig'lanadigan bo'lib qoladi. O'tkir tonzillitning kataral, follikulyar, yiringli va boshqa xillari farq qilinadi. Mahalliy (peritonzillyar abscess, o'rta quloqning o'tkir yallig'lanishi) va umumiy (bo'g'imlar, yurak, buyrakning zararlanishi) asoratlar qoldirishi mumkin. Vrach ko'rsatmalarini beqamu-ko'st bajarish tez sog'ayib ketishga imkon beradi va asoratlar avj olishiga yo'l qo'ymaydi. LOR a'zolari kasalliklarini davolashda eng muhimi yaxshi LOR shifokorni topish zarur. Shifokor davolashda dori-darmonlardan tashqari xar-hil fizioterapevtik davo usullarida foydalanadi.